

Paxriddinova Nilufar Habibullayevna

Namangan davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi me'morchiligidagi amaliy san'atning badiiy – estetik ahamiyati Farg'ona vodiysida amaliy san'atning bir qancha yetuk namoyandalari, amaliy san'at ustalarining barcha tadbirlarida erishgan eng muhim yutug'i binolarni bezashda me'morlar, rassomlar, suvoqchilar, yog'och o'ymakorlari, kulollar va tasviriy san'at ustalarining hamkorligi haqida bat afsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: me'morchilik, amaliy san'at, tasviriy san'at ustalari, kulolchilik, simmetrik, ritm.

Kirish:

Farg'ona vodiysini go'zal tabiatni, yerosti boyliklari, xush havo iqlimi tufayli Markaziy Osiyoning gavhari, deb ataydilar. Atroflari Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog'lari bilan o'ralgan vodiy g'arb tomondagina Sirdaryoga o'z darvozasini ochadi. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida hamisha muhim rol o'ynagan. Alqissa, Farg'ona davlati – Davan to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy xitoy solnomalarida eramizning II asri oxiridan boshlab keltiriladi, O'rta asrlarda esa u Mavarounnahrning etakchi o'lkalaridan biri hisoblangan. XI asrda Marg'ilon, savdogarlar Buyuk ipak yo'lli bo'ylab Misr, Yunoniston, Bag'dod, Xuroson va Qashqarga olib ketgan ipak matolari bilan dong taratgan Farg'ona vohasidagi eng yirik shahar bo'lgan. Bugun ham Marg'ilonni O'zbekistonning ipakchilik poytaxti, deb atash mumkin. Shahar hunarmandlari eski usulda bo'yalgan ipakdan xonaki atlas to'qib, bozorga chiqaradilar. Farg'onadan 50 kilometr narida uncha katta bo'Imagan Rishton shahri joylashgan. U, kulolchilik rivojlangan shahar sifatida mashhurdir. Bu hunar bilan shahar ahli IX asrdan boshlab shug'ullanib keladi. Mana, 1100 yildirki, ustalar mahalliy qizil gildan sopol buyumlarni yasash va ularga tabiiy ma'danli bo'yoqlar hamda tog' giyohlari kulidan tayyorlanadigan sir yordamida bezash sirlarini avloddan avlodga o'rgatib kelayotirlar. Betkaror feruza va yorqin ko'k rangli ishqor yordamida gul solingan lagan, shokosa, ko'za, sut saqlanadigan idishlar rishtonlik usta kulollarga ko'plab xalqaro ko'rgazmalarda shuhrat keltirgan. Rishton kulollari yasagan sopol buyumlar dunyodagi ko'plab muzeylar va xususiy kollektsiyalardan o'rinni olgan. Qo'qon uzoq vaqt Farg'ona vodiysining asosiy shahri, deb hisoblangan. XVIII-XIX asrlarda shahar hozirgi O'zbekiston hududining kattagina qismi hamda qo'shni mamlakatlarga o'z hukmini o'tkazgan kuchli davlat - Qo'qon xonligining poytaxti bo'lgan. Ayni paytda Qo'qon yirik din markazi ham hisoblangan. Qoqon, Toshkent me'morchilik maktablarining vakillari jamoatbinolarini qurish va ularni bezashda, naqshlar tanlashda oz maktablarining an'analarini takomillashtirganlar hamda rivojlantirganlar. Qoqon va Toshkentning mahalliy me'morchilik maktablari ozlarining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak va jihozlarning

g'oyat nafisligi, ranglarning sho'xchanligi, hamda yog'och va ganch o'ymakorligi bilan ajralib turadi. Xonlik me'morchiligidagi chiroyli qilib aylantirib urg'u berilgan, ichiga islamiy naqshlar tushirilgan, ko'proq qizil hamda yashil bo'yoqlar bilan jilolangan bezaklar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu davrda xonlikda hattotlik va kitobat san'ati ham rivoj topgan edi. Qoqon xonligining o'z hattotchilik maktabi bo'lib, mamlakatda koplab xattotlar yashab, ijod qilganlar. Xattotlarning aksariyati shoir, tarixchi bo'lgan yoki miniatyura san'ati bilan shug'ullangan. Qo'qonlik Muhammad Latif, Abdulg'ozzi Xo'ja Xo'qandiy, Mirzo Bobokalon Xo'qandiy, Ahmadjon kotib, Abdug'afur xattot, Mirzo Sharif Dabir, toshkentlik Muhammad.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qoqon xonligi nihoyatda murakkab, siyosiy kurashlar avj olgan bir davrda vujudga kelib, shakllandi. Shunday murakkab jarayonlarda ham me'morchilik, amaliy san'at, xattotlik, kitobat san'ati o'zining yuksak rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Murotov X, Jabborov R. Amaliy va badiiy bezak san'ati. – T.: Ijod-print,
2. Bulatov S.S. Naqqoshlik.–T.: Fan va texnologiya, 2010.
3. Qodirxo'jaev P. Badiiy bezak san'ati. –T: Iqtisod–moliya, 2008.
4. G'ulomov K.M. Amaliy san'at. –T: Iqtisod–moliya, 2008.
5. Хасанов Р. Изобразительное искусство и художественное ремесло.– Т: Узбекистан, 1999